

PAPER

## IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYING DAVRDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOT

Raxmatova Munisa<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

\* [raxmatova752@gmail.com](mailto:raxmatova752@gmail.com)

### Abstract

Maqolada ikkinchi jahon urushidan keying yillarda O‘zbekistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, markaz tomonidan ma‘muriy buyruqbozlik asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar hamda uning mahalliy aholining turmushiga ko‘rsatgan ta‘siri tahlil etiladi. Bundan tashqari, urushdan keyinggi yillarda aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kundalik hayotda yuzaga kelgan o‘zgarishlar va muammolar ham birlamchi manbalar asosida o‘rganilgan.

**Key words:** hokimiyat, boshqaruv, ma‘muriyat, ijtimoiy hayot, iqtisodiyot, muammo, milliy iqtisodiyot, ehtiyoj.

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatida “.....aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish biz uchun asosiy vazifalardan biriga aylanishi bejiz emas”, deb ta‘kidlanadi, albatta. Chunki bugungi kunda mamlakatimiz aholisining ijtimoiy-moddiy ahvolini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli davlat siyosati amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston aholisining ijtimoiy-moddiy ahvolini o‘rganishda, avval O‘zbekiston tarixiga nazar tashlagan holda, O‘zbekistonning sobiq Sovet hokimiyati davridagi tarixiy ma‘lumotlarni tahlil

qilish biz uchun foydali bo‘ladi.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng keng ko‘lamli va halokatli ijtimoiy-siyosiy hodisalardan biri bo‘lib, u nafaqat davlatlararo munosabatlar tizimini, balki jamiyatlarning ichki ijtimoiy tuzilmasini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Urush yakunlanganidan so‘ng dunyomimg turli mintaqalarida yuzaga kelgan iqtisodiy vayronagarchilik, demografik yo‘qotishlar, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi hamda aholi ruhiy-psixologik holatining izdan chiqishi jamiyatning barqaror rivojlanishini jiddiy xavf ostiga qo‘ydi.

Urushdan keyinggi murakkab vaziyatlar sobiq Ittifoq rahbariyati uchun boshqaruv tizimini

Compiled on: April 1, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

davr talablariga mos ravishda qayta tashkil etishni, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini yangilashni qiyinlashtirdi. Aholi urushdan keyingi turmushdan katta umidlar qilgan edi. Ayniqsa, zo'ravonlik va ma'muriy boshqaruv uslublari xalqni chuqur ranjitgan. Milliy xo'jalikni tinchlik davri ehtiyojlari asosida qayta tiklash bilan bir qatorda, jamiyatning ma'naviy muhitini ham yangilash zarur edi. Afsuski, bunday o'zgarishlar ro'y bermadi. Sababi, ma'muriy tizimga asoslangan boshqaruv shaklini o'zgartirish nihoyatda mushkul va deyarli imkonsiz edi. Shu bois, markaziy hokimiyat boshqaruvni erkinlashtirish o'rniga, qisqa fursatda avtoritar tartibni yanada kuchaytirish yo'lini tanladi. Bu holat keyingi voqealar rivojida va ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan salbiy holatlarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Stalin va Beriya tomonidan boshqariladigan zolim hokimiyat organlari avtoritar rejimni mustahkamlashga alohida urg'u berishdi. Ukraina Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi (b) ko'rsatmalarini amalga amalga oshirish jarayonida avtokratik rejimning mafkuraviy institutlari milliy respublikalarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti ustidan to'liq nazorat o'rnatish va boshqacha fikrga ega bo'lgan yoki o'z huquqlarini talab qilgan xodimlarni shafqatsizlarcha o'ldirish yo'lidan bordilar. Buni 47-ko'rsatmada berilgan vazifalar bayonotidan ham bilib olish mumkin (Moskva, 06.1947 Prikaz NK (003)).

Ushbu hujjatning birinchi xatboshisida tashkilotchilik qobiliyatiga ega va xalq orasida mashhur bo'lgan odamlarni ishga olish uchun kurashish zarurligi, agar ular rad etsalar, ularning yuqori lavozimlarga yo'lini to'sish zarurligi ta'kidlangan. Xodimlarni ish bilan ta'minlash zarurati qayd etilgani ham mazkur tizimning asl mazmunini yoritib beradi. Shunga qaramay, urushdan keyingi osoyishta davrning shon-shuhratidan ruhlangan insonlar uzluksiz mehnat qildilar va milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida faollik ko'rsata boshladilar. Ishlab chiqarishda ilg'orlik harakati keng yoyildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakat sanoati urushdan keyingi yillarda ishlab chiqarish salohiyatini izchil ravishda oshirib bordi. Bu esa aholi turmush darajasini yaxshilash, karta tizimini bekor qilish, pulning qadrini mustahkamlash

hamda boshqa qator ijtimoiy islohotlarni ro'yobga chiqarish imkonini yaratdi.

1947-1948-yillarda qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olish aholining oziq-ovqat ta'minotini biroz bo'lsa-da yaxshiladi.

1947-yilga kelib, aholini oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj buyumlari bilan ta'minlashning karta tizimi bekor qilindi. O'sha yili pul-kredit islohoti ham amalga oshirildi. Bu choralar mamlakatning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirdi, ammo aholining ahvolini og'irlashtirdi, chunki tijorat narxlarida sotilayotgan ko'plab tovarlar aholi uchun qimmat edi. Natijada, ko'plab tovarlar sotilmay qoldi. 1947-1950-yillar oralig'ida ularning narxlar 5 baravar pasaydi. 1950-yil 1-martda oziq-ovqat mahsulotlari narxi quyidagi miqdorda pasaytirildi: un va un mahsulotlari 21-30% ga, don mahsulotlari 12-20% ga, go'sht va kolbasa mahsulotlari 24-35% ga, baliq va baliq mahsulotlari 10-35% ga, mol yog'i 30% ga, sut va sut mahsulotlari 10-35% ga arzonlashdi. Ammo shunga qaramay, mahsulotlar narxi 1940-yilga nisbatan 2 baravar yuqori edi.

Shunday holatda ham xalq tinimsiz mehnat qildi. Millionlab odamlarning fidoyi mehnati tufayli milliy iqtisodiyot tezda tinch qurilish yo'lidan keta boshladi. O'sha paytda Sovet davlati tomonidan milliy iqtisodiyotni tiklash bo'yicha qabul qilingan dasturlarda asosiy mablag'lar va vositalar urush natijasida vayron bo'lgan g'arbiy mintaqalarga yo'naltirilgan edi va O'zbekistonni o'z ichiga olgan sharqiy mintaqalar o'z mablag'lariga tayanishga majbur bo'lgan. Bundan tashqari, O'zbekiston aholini oziq-ovqat va iste'mol tovarlari bilan ta'minlashdagi kamchiliklarga, iqtisodiyotni qayta tiklashda malakali ishchilar va mutaxassislarning yetishmasligiga qaramay, Ittifoqning g'arbiy mintaqalariga yordam berish bo'yicha markazning vazifasini bajarishi kerak edi. Masalan, O'zbekiston aloqa xodimlari Dnepropetrovsk viloyatiga 300 mutaxassisni safarbar qildilar, Toshkent temir yo'llari esa g'arbdagi temir yo'llarni tiklash uchun 230 temir yo'l ishchisini safarbar qildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston Respublikasi, Rossiyaning sharqiy hududlari, Chuvashiston, Tatariston va Boshqirdiston avtonom respublikalari Ukrainaga 5000 ta traktor, 300 ta yengil avtomobil, 500 ta traktor omochi va ko'p sonli boshqa qishloq

xo'jaligi mashinalari yetkazib berdi.

Sovet davlatining zulmkor siyosati, yigirmadan ortiq millat va elat vakillarining O'rta Osiyoga, jumladan, O'zbekistonga ko'chirilishi, shuningdek, urush vaqtida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan aholi tufayli respublika aholisining milliy tarkibida katta o'zgarishlar yuz berdi. Hukmron rejimning ko'chirilgan xalqlarga nisbatan ta'qib va cheklovlariga qaramay, o'zbek xalqi o'zining bag'rikengligi va insonparvarligiga sodiq qolib, ko'chirilgan insonlarga iliq munosabatda bo'ldi.

Sovet davlati ularga yer, uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlashda o'ziga xos saxiylik ko'rsatdi. Masalan, 1945-yil 1-iyulgacha bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, Qrim va Gruziya davlatlaridan Farg'ona viloyatiga maxsus ko'chirilgan 6569 oiladan 4322 tasi kolxoz a'zosi sifatida qabul qilingan va ularga xususiy mulk va yer berilgan. 3847 oiladan 979 tasiga qishloq xo'jaligi kreditlari ajratilgan. 1949-yilda Qora dengiz va Qrim qirg'oqlarida yashovchi yunonlarni ko'chirishning ikkinchi bosqichida 12 000 etnik yunon Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l shaharlariga joylashtirilgan. Ko'chirib keltirilganlar uchun maxsus 14 ta shaharcha qurilgan. 1949-yil 1-yanvardagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonga maxsus ko'chirilgan odamlar soni 177 090 kishini tashkil etgan. Ayniqsa, urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalqi urush vaqtida evakuatsiya qilingan odamlarga, jumladan, harbiy xizmatchilarning oilalariga, yetim bolalarga, urush tufayli nogiron bo'lib qolgan insonlarga o'zining beg'araz yordamini ayamadi. Masalan, 1946-yilda Respublika ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan urush tufayli ko'chirilgan oilalarning ehtiyojlari uchun 236 931 ming rubl ajratildi.

## Xulosa

Ikkinchi jahon urushidan keying davrida O'zbekiston hududida aholi turmush darajasi va ijtimoiy himoya tizimining shakllanishi murakkab va ziddiyatli bosqichlarni bosib o'tgan. Bu davrda sobiq Sovet davlatining markazlashgan va ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan siyosati respublikalarning, jumladan, O'zbekistonning mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo'ydi. Urushdan keyingi yillarda

iqtisodiyotni tiklash jarayoni asosan markaz manfaatlariga xizmat qilgan holda olib borilgan bo'lib, resurslar va investitsiyalarning katta qismi Ittifoqning g'arbiy hududlariga yo'naltirilgan. Natijada, O'zbekiston iqtisodiyoti o'z ichki imkoniyatlariga tayangan holda rivojlanishga majbur bo'lgan. Ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ayrim islohotlar, jumladan, karta tizimining bekor qilinishi va narxlarning pasaytirilishi ma'lum darajada ijobiy natijalar bergan bo'lsa-da, ular aholining real daromadlari va yashash sharoitlarini tubdan yaxshilashga yetarli bo'lmagan. Narxlar darajasining urushgacha bo'lgan davrga nisbatan yuqoriligi, iste'mol tovarlari tanqisligi hamda ma'muriy cheklovlar aholining ijtimoiy ahvolini murakkablashtirib qolgan. Shu bilan birga, demografik jarayonlar, xususan, turli xalqlarning majburiy ko'chirilishi va evakuatsiya oqibatida respublika aholisining milliy tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Bunday sharoitda o'zbek xalqining bag'rikenglik, insonparvarlik va hamjihatlik kabi fazilatlarini namoyon bo'lib, turli millat vakillarini qabul qilish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi <https://uza.uz/posts/3329>
2. Саидов А. Парк Победы: философия мужества и стойкости. – Ташкент: TASVIR, 2021. – С. 338–341.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob, – Toshkent: "Sharq". 2000. – B. 510.
4. Ergashev Sh. Erk istar ko'ngil. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – B.50.
5. Народное хозяйство СССР: ст: сб. – Москва: 1958, – С .771.
6. Raxmonqulova A. O'zbekistonga zo'rlik bilan ko'chirilgan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga doir (1930-1950 y.). Ijtimoiy fikr. 2002. №1., – B .70.

7. <http://www.russred.ru>.
8. Yunusova X. XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda milliy munosabatlarning ba'zi jihatlari. // O'zbekiston tarixi. 2002. №1, - B.48
9. O'z MA 96-fond, 2-yozuv, 714-ish, 7-varaq.